# RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MA'LUMOTLAR BAZASINI HUQUQIY HIMOYA QILISHNING DUALISTIK MODELI: SUI GENERIS VA MUALLIFLIK HUQUQI NISBATI

**Mamadaliyeva Farangiz**

Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk va

axborot texnologiyalari yo'nalishi magistranti

**Doi:** https://doi.org/10.5281/zenodo.19982011

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiytbsharoitida ma'lumotlar bazasini himoya qilishning zamonaviy masalalari tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ma'lumotlar bazasini himoya qilishning dualistik modelini ya'ni mualliflik huquqi va sui generis rejimi o'rtasidagi huquqiy nisbatni belgilashdan iborat. Maqolada an'anaviy mualliflik huquqi bilan faqat bazaning ijodiy tuzilishini himoya qilish, ushbu tizim uning mazmuniga sarflangan investitsiyani himoya qila olmaslik masalasi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, ma'lumotlar bazasi, mualliflik huquqi, sui generis, dualistik model, intellektual mulk, sezilarli investitsiya.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы современные вопросы защиты баз данных в условиях цифровой экономики. Основная цель исследования заключается в определении дуалистической модели защиты баз данных, а именно правового соотношения между авторским правом и режимом sui generis. В статье освещается вопрос о том, что традиционное авторское право защищает только творческую структуру базы данных, в то время как эта система не способна обеспечить защиту инвестиций, вложенных в её содержание.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, база данных, авторское право, sui generis, дуалистическая модель, интеллектуальная собственность, существенные инвестиции.

**Abstract:** This article analyzes modern issues of database protection in the context of the digital economy. The primary objective of the research is to define the dualistic model of database protection, specifically the legal relationship between copyright and the sui generis regime. The article highlights how traditional copyright only protects the creative structure of a database, while this system fails to safeguard the investments made into its content.

**Keywords:** digital economy, database, copyright, sui generis, dualistic model, intellectual property, substantial investment.

## I.INTRODUCTION

Hozirgi to'rtinchi sanoat inqilobi davrida ma'lumotlar nafaqat axborot manbai sifatida, balki global iqtisodiyotning eng qimmatli aktivi sifatida baholanmoqda. Ayni paytda ma'lumotlarning qiymati shu darajada yuqoriki, hattoki iqtisodiyotning ajralmas qismiga ham aylanmoqda. Ma'lumotlarning oqimining ko'pligi hamda shu bilan bir qatorda ularni filtrlash imkonining har doim ham imkoniyati bo'lmayotganligini inobatga olgan holda, har bir berilayotgan ma'lumolarni saralash masalasi inson zimmasiga yuklatilmoqda. Umuman olganda ma'lumotlar raqamli davrimizning "yangi neft"iga aylandi, desak ham xato qilmagan bo'lamiz. Hozirgi kunda katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash, ularni tizimlashtirish va saqlash jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini jumladan moliya, tibbiyot, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqaruv faoliyatini tubdan o'zgartirib yubordi. Hayotimizni ma'lumotlarsiz tasavvur qilish mushkul ishga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda intellektual mulk obyektlarining eng qiymatli, dolzarb va o'z o'rnida bahsli obyektlari sifatida ma'lumotlar bazasi namoyon bo'lmoqda. Bundan taxminan 30 yillar muqaddam ma'lumotlar bazasining ahamiyati yuqori darajada bo'lmasa-da, ammo hozirgi paytga kelib ushbu obyektga nisbatan talab tobora oshib bormoqda. Bunga yagona sabablarda biri esa avvalo ma'lumotlar oqimining yuqoriligi va shu bilan bir qatorda ularnig hajmi yuqori ekanligini inobatga olgan holda, ularni tizimlashtirish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ma’lumotlar bazasini huquqiy jihatdan muhofaza qilishning an’anaviy yondashuvi, asosan, uni mualliflik huquqi obyekti sifatida e’tirof etishga asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va bir qator xalqaro hujjatlarga ko‘ra ham ma’lumotlar bazasini qachonki uning mamuniga kiruvchi obyektlarning tanlash va joylashtirishda ijodiy yondashuv bo’lsagina himoya qiladi. Ammo hozirgi kunda ko‘pgina ma’lumotlar bazalari nafaqat ma’lumotlar bazalari balki ko‘pgina intellektual mulk obyektlari insonning ijodiy mehnati bilangina emas balki murakkab algoritmlar yoki sun’iy intellekt yordamida yaratish ma’lumotlar bazalarining “ijodiylik” elemetini yo‘q qilishga olib kelmoqda. Bunday bazalarni yaratish uchun ijodiylik kasb qilinmayotgan bo‘lsa-da, ularni yaratish uchun subyektlar katta miqdordagi moliyaviy, texnik va mehnat sarflashmoqda. Aynan shunday jarayonda mualliflik huquqi rejimi aynan investitsiyani himoya qilishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini inobatga olgan holda, ma’lumotlar bazasini himoya qilishning dualistik modeli ya’ni mualliflik huquqi bilan bir qatorda sui generis (o‘ziga xos) huquqini qo‘llash zaruratini keltirib chiqardi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, amaldagi qonunchiligimiz ijodiy bo‘lgan ma’lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilishga qaratilgan bo‘lsa-da, hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu ikki ya’ni mualliflik huquqi va sui generis huquqiy rejimining o’zaro nisbati hamda chegarasini aniqlash, ularni bir-birini inkor etmaydigan balki bir-birini to’ldiruvchi modellar ekanligini tadqiq qilish zarurati va ularning afzalliklarini ilmiy tahlil qilish bilan belgilanadi.

## II.METODOLOGY

Ushbu tadqiqotning metodologik asoslari quyidagi tahlil usullaridan iborat: nazariy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, tarixiy-huquqiy. Ushbu tahlil usullaridan foydalanish ushbu tadqiqotning asosiy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

## III. RESULTS

Ma’lumotlar bazasi — obyektiv shaklda ifodalangan hamda elektron hisoblash mashinalari yordamida topish va ishlov berish mumkin bo‘ladigan tarzda bir tizimga

solingan ma’lumotlar (masalan: maqolalar, hisob-kitoblar) majmui[1]. Ma’lumotlar bazalari 1960-yillarning boshlarida paydo bo‘lganidan beri keskin rivojlandi. Ierarxik ma’lumotlar bazasi (daraxtga o‘xshash modelga asoslangan va faqat bittadan ko’pga bog‘liqlikka imkon beradigan) va tarmoq ma’lumotlar bazasi (bir nechta bog‘liqlikka imkon beradigan yanada moslashuvchan model) kabi navigatsiya ma’lumotlar bazalari ma’lumotlarni saqlash va boshqarish uchun ishlatilgan asl tizimlar edi. Oddiy bo‘lishiga qaramay, bu dastlabki tizimlar moslashuvchan emas edi. 1980-yillarda relyatsion ma’lumotlar bazalari ommalashib ketdi, undan keyin 1990-yillarda obyektga yo‘naltirilgan ma’lumotlar bazalari paydo bo‘ldi. Yaqinda NoSQL ma’lumotlar bazalari internetning o‘sishi va strukturasiz ma’lumotlarni tezroq qayta ishlash va qayta ishlash zaruratiga javoban paydo bo‘ldi. Bugungi kunda bulutli ma’lumotlar bazalari va o‘zini-o‘zi boshqaradigan ma’lumotlar bazalari ma’lumotlarni qanday to‘plash, saqlash, boshqarish va ulardan foydalanish borasida yangi bosqichlarni boshlab bermoqda[2].

Ma’lumotlar bazasini intellektual mulk obyekti sifatida paydo bo‘lish masalasi 1996-yillarga borib taqaladi. 1971-yilda qabul qilingan Bern konvensiyasida ma’lumotlar bazasi haqida fikr yuritilmagan. Bunga asosiy sabablardan biri esa Bern konvensiyasi an’anaviy mualliflik huquqi obyektlarini himoya qiluvchi xalqaro hujjatlardan biri hisoblanadi. 1996-yilda esa “Mualliflik huquqi shartnomasi” qabul qilingan bo‘lib, ushbu xalqaro hujjat elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarini himoya qilish maqsadida qabul qilingan. Ushbu hujjatning 5-moddasiga ko‘ra, tanlash va joylashtirish natijasida intellektual ijod natijasini tashkil etuvchi har qanday shakldagi ma’lumotlar yoki boshqa ma'lumotlar to'plamlari shunday himoyalangan[3]. “Mualliflik huquqi va turdosh

[1] 1994-yil 6-may 1060-XII-sonli “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonuni

[2]https://www.oracle.com/database/what-is-database/

[3] BIMT Mualliflik huquqi shartnomasi va BIMT Mualliflik huquqi shartnomasiga tegishli kelishilgan bayonotlar

huquqlar to‘g‘risida” gi qonunning 7-moddasiga muvofiq[4], ma’lumotlar bazalari to‘plamlar sifatida e’tirof etilishi nazarda tutilgan. O‘tkazilgan tahlil natijalari shuni ma’lum qiladiki, sui generis va mualliflik huquqi bir-birini inkor etuvch emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi tizimlar hisoblanadi. Mualliflik huquqi ma’lumotlar bazasining tanlanishi va joylashtirilishiga nisbatan huquqlarni himoya qilsa, sui generis huquq tizimi esa uni mazmuni va tarkibiga sarflangan, ma’lumotlarni to‘plash, tizimlashtirish va saqlashga ketadigan investitsiyani himoya qiladi. Bu esa o‘z navbatida raqamli platformalardagi ma’lumotlarning nafaqat joylashtirilishi, balki unga sarflangan investitsiyani ham himoya qilishga olib keladi. Ma’lumotlar bazalari ijodiy ahamiyat kasb etmadi degani, uni himoya qilish o‘rinsiz degani emas. Qisqa qilib aytganda, ijodiy bo‘lgan ma’lumotlar bazalari mualliflik huquqi obyekti sifatida muhofaza qilinsa, ijodiy bo‘lmagan ma’lumotlar bazalari esa sui generis tizimi orqali himoya qilinadi. Tadqiqot natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, sui generis tizimi uchun asosiy mezon – sezilarli investitsiya ekanligi aniqlandi. Ushbu investitsiya quyidagilarda namoyon bo‘ladi: ma’lumotlar bazasini yaratish uchun yuqori malakali mutaxassislarning jalb qilinishi, ma’lumotlarning yig‘ish va qayta ishlash uchun sarflangan moliyaviy mablag‘lar va texnik quvvatlar va boshqalar shular jumlasidandir. Sui generis tizimi hozirgi kunda ko‘pgina mamlakatlarda joriy qilinmagan. Xususan, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan ijodiy bo‘lmagan ma’lumotlar bazalarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro hujjat mavjud emas. Ijodiy bo‘lmagan ma’lumotlar bazalariga doir xalqaro hujjatni qabul qilishga bo‘lgan urinish 1996-yilda boshlangan. Ushbu turdagi ma’lumotlar bazalarini himoya qilish bo‘yicha shartnoma loyihasi taklif qioingan, ammo qabul qilinmagan. Ko‘pgina davlatlar ushbu xalqaro hujjatga qo‘shilishni istashmagan, bunga asosiy sabablardan biri esa ushbu shartnomaning qabul qilinishi ma’lumotlarga kirishni cheklab qo‘yadi degan vajni keltirishgan. 1996-yilda Yevropa Ittifoqida “Database Directive”si qabul qilingan bo‘lib, ushbu hujjat ijodiy bo‘lmagan ma’lumotlar bazalariga sui generis tizimini joriy etgan va ushbu turdagi ma’lumotlar bazalariga 15 yillik himoya muddatini bergan. Ijodiy bo‘lgan ma’lumotlar bazalariga nisbatan huquqiy himoya esa muallif vafotidan so‘ng 70 yilni tashkil etadi. Agar u hammaualiflar natijasida yaratilgan bo‘lsa, u holda uzoq umr ko‘rgan muallif vafotidan so‘ng, 70 yilni tashkil etadi.

## IV.DISCUSSION

Umuman olganda, ma’lumotlar bazasini yaratish ijodiylikka tayanadi. Lekin sun’iy intellekt hamda boshqa tizimlar yaratayotgan ma’lumotlar bazalari inson ijodi omilini minimal darajada pasayishiga olib kelmoqda. Bu esa ayniqsa faqatgina ijodiy bo‘lgan ma’lumotlar bazalariga tayanish raqamli asrda “investitsion bo‘shliq”ni keltiriib chiqaradi. Jeyn Ginsburg intellektual mulk huquqi bo‘yicha dunyoning eng nufuzli olimlaridan biri bo‘lib, ma’lumotlar bazasini himoya qiishda “ijodiylik” mezonining yuqori qo‘yilishi investitsiyalarni himoyasiz qoldirishini ta’kidlab o‘tgan. Mualliflik huquqi faqat “original” bazalarni himoya qila oladi, biroq raqamli iqtisodiyotda “ijodiy bo‘lmagan” bazalar eng katta iqtisodiy qiymatga ega. Uning fikricha, bunday bazalarni himoya qilish uchun mualliflik huquqidan tashqarida bo‘lgan maxsus rejim zarur[5]. Mark Davison ma’lumotlar bazasini himoya qilishning dualistik modelini qo‘llab-quvvatlaydi, biroq u “sezilarli investitsiya” tushunchasi o‘ta keng talqin qilinmasligi kerakligini uqtiradi. Uning fikricha, bu huquq axborot ustidan monopoliyaga aylanib ketmasligi uchun jamoat manfaatlari va “fair use” prinsiplari bilan muvozanatlanishi kerak[6]. Munozaraning markaziy nuqtasi shundan iboratki, sui generis tizimi mualliflik huquqini inkor etaydi, balki uni to‘ldiruvchi, iqtisodiy davomchi sifatida namoyon bo‘ladi. Yevropa Ittifoqi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bunday himoyaning mavjudligi ma’lumotlar bozorida ishonchni oshirishga hamda investorga o‘z xarajalarini qoplash va foyda olish kafolatini berishi ham mumkin, bu esa raqamli iqtisodiyotning dinamik tabiatiga mos keluvchi holatdir. Boshqa olimlarning fikricha esa, sui generis tizimi ma’lumotlarga kirish oqimini

[4] 2006-yil 20-iyul O‘RQ-42-sonli “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonuni

[5] Ginsburg, J. C. (1992). Creation and Commercial Value: Copyright Protection of Works of Information. Columbia Law Review, 92(7), 1865-1905.

[6] Davison, M. J. (2003). The Legal Protection of Databases. Cambridge University Press

cheklab, ularni ustidan monopoliyani keltirib chiqaradi degan xulosaga kelishadi. Ammo sui generis tizimining himoya muddati 15 yil bo‘lib, u faqat tijorat maqsadida sezilarli qisminigina o‘zlashtirishni taqiqlaydi, xolos. Bu esa jamiyat hamda foydalanuvchilar uchun axborotdan foydalanish imkoniyatini saqlab qoladi.

## V. Conclusion

Raqamli muhitda ma’lumotlar bazasini huquqiy himoya qilish masalasi an’anaviy mualliflik huquqi doirasidan chiqib, balki endilikda iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. O‘tkazilgan tadqiqot va olimlarning fikri bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

**1.Dualistik yondashuvning zarurligi:** Ma’lumotlar bazasini ham mualliflik huquqi jihatidan, ham sui generis huquqi jihatidan muhofaza qilish raqami bozorda adolatli raqobatni ta’minlovchi asosiy mezon hisoblanadi. Bu model muallifning ijodiy mehnatini ham, o‘z navbatida investorning moliyaviy mablag‘i hamda mehnatini ham himoya qiladi.

**2.Ma’lumotlar bazasini yaratishga rag‘batning oshishi**: O‘z navbatida, sui generis huquqining joriy etilishi, ma’lumotlar bazasini yaratishga bo‘lgan rag‘batning oshishiga ham turtki bo‘ladi. Yetarli darajada ma’lumotlar bazasini himoyasini ko‘rayotgan mualliflar yanada ko‘proq ma’lumotlar bazasini yaratishga, bu esa ko‘plab sohalarning raqamlashishiga olib keladi.

3. Huquqiy muvozanat: Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, dualistik model jamiyatning axborotga bo‘lgan huquqini cheklamaydi, aksincha u faqatgina ma’lumotlar bazasining sezilarli qismini tijorat maqsadida ruxsatsiz ko‘chirishni taqiqlaydi.

Qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar:

1.O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida” gi qonuni hamda “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalari to‘g‘risida” gi qonunga “ijodiy bo‘lmagan ma’lumotlar bazasi” tushunchasini kiritish va uni yaratuvchisinng huquqlarini belgilab qo‘yish;

2.Ma’lumotlar bazasini yaratishga sarflangan “sezilarli investitsiya” mezonini ishlab chiqarish va himoya muddatini 15 yil etib belgilash;

3.Ma’lumotlar bazalarini tijorat maqsadida foydalanish yuzasidan javobgarlikni kuchaytirish;

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bern konvensiyasi
2. Directive 96/9/EC of the European Parliament and of the Council on the legal protection of databases
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi
4. 1994-yil 6-may 1060-XII-sonli “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonuni
5. 2006-yil 20-iyul O‘RQ-42-sonli “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonuni
6. Ginsburg, J. C. (1992). Creation and Commercial Value: Copyright Protection of works of Information. Columbia Law Review, 92(7), 1865-1905
7. Davison, M. J. (2003). The Legal Protection of Databases. Cambridge University Press
8. https://www.oracle.com/database/what-is-database/